



The heroic feat of 11 Eastern heroes who displayed valor in the battles on the outskirts of Stalingrad

Khabibullo KHOLMATOV¹

Chirchik Higher Tank Command Engineering Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024
Received in revised form
15 December 2024
Accepted 20 January 2025
Available online
25 February 2025

Keywords:

Stalingrad,
Hill 115.2,
strategic defense,
strategic encirclement,
operation,
battle,
attack,
machine gun,
mortar,
military skill,
military equipment.

ABSTRACT

This article describes the exemplary courage displayed by the sons of Uzbekistan on the battlefields during the Stalingrad strategic defense and encirclement operation. Notably, in the defense of Stalingrad, on hill 115.2, a group of 11 Central Asian fighters led by Mikhail Kabribov fought for 12 days against an enemy force 30 times their size. The enemy repeatedly attacked the hill these warriors were defending, unleashing a barrage of machine gun fire, mortar shells, and artillery. However, nothing could compel the warriors to abandon their positions. They successfully prevented the enemy from breaking through, thereby creating conditions for their battalion's success. In memory of the fallen warriors, this hill was named "The Hill of the 11 Heroes of the East".

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss1-pp269-275>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Stalingrad ostonasidagi janglarda qahramonlik ko'rsatgan Sharqning 11 qahramoni jasorati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Stalingrad,
115,2 tepalik,
strategik mudofaa,
strategik qurshab olish,
operatsiya,
jang,
hujum,
pulemyot,
minomyot,
harbiy mahorat,
harbiy texnika.

Ushbu maqolada Stalingrad strategik mudofaa va qurshab olish operatsiyasida O'zbekiston farzandlari jang maydonlarida ko'rsatgan jasorat namunasi bayon etilgan. Xususan Stalingrad mudofaasida 115,2 tepaligida Mixail Kabribov boshchiligida O'rta Osiyolik jangchilardan iborat 11 kishi o'zlaridan 30 marotaba ko'p bo'lgan dushman bilan 12 kun davomida jang qilishgan. Bu jangchilar mudofaa qilayotgan tepalikka dushman bir necha marta hujum qilgan, pulemyotdan o'q yog'dirgan, minomyot va to'plardan o'qqa tutgan. Biroq jangchilarni o'z

¹ Associate Professor, Department of Humanities, Chirchik Higher Tank Command Engineering Institute.

joylarini tashlab ketishga hech narsa majbur qila olmagan. Ular dushmani o'tkazmadilar va shu bilan o'z batalonlarining muvaffaqiyat qozonishiga sharoit yaratdilar. Halok bo'lgan jangchilar xotirasi uchun bu tepalik "Sharqning 11 qahramoni tepaligi" deb nomlangan.

Подвиг 11 героев Востока, проявивших героизм в сражениях при обороне Сталинграда

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Сталинград,
высота 115,2,
стратегическая оборона,
стратегическое
окружение,
операция,
бой,
атака,
пулемет,
миномет,
военное мастерство,
боевая техника.

В этой статье описывается пример мужества, проявленного сыновьями Узбекистана на полях сражений в ходе Сталинградской стратегической оборонительной операции и операции по окружению противника. В частности, во время обороны Сталинграда на высоте 115,2 группа из 11 бойцов из Средней Азии под командованием Михаила Кабриова в течение 12 дней сражалась с противником, численность которого в 30 раз превышала их собственную. Враг неоднократно атаковал высоту, обороняемую этими бойцами, обстреливал её из пулемётов, миномётов и орудий. Однако ничто не могло заставить воинов оставить свои позиции. Они не пропустили врага и тем самым создали условия для успеха своего батальона. В память о погибших бойцах эта высота была названа «Высота 11 героев Востока».

Hamмамizga ma'lumki, Ikkinchi jahon urushi O'zbekiston uchun o'ta muhim va sinovlarga boy voqea bo'lgan. Bunda nafaqat umumiy g'alaba uchun jonini fido qilgan ko'plab o'zbekistonliklarning jasorati, balki respublikamiz butun sobiq Sovet Ittifoqiga ko'rsatgan ma'naviy jasorat namunasi haqida ham gapirish o'rinlidir. Gap xalqimizning buyuk G'alabaga qo'shgan hissasi hali to'liq o'rganilmaganligi haqida bormoqda, ammo keyingi yillarda ushbu yo'nalishda juda katta ishlar amalga oshirila boshlandi. Xususan, ilgari yopiq bo'lgan arxiv hujjatlarini, ilmiy jamoatchilik uchun ma'lum bo'lmagan materiallarni o'rganish uchun imkoniyat yaratildi.

Bu borada sobiq Ittifoq respublikalari va chet ellardagi arxiv tashkilotlari, muzeylar va fondlar, tarixchi olimlar va mutaxassislar, keng jamoatchilik bilan hamkorlik kuchaytirildi. Ilmiy izlanishlar natijasida xalqimizning Ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki haqida, qahramon ajdodlarimiz haqida juda muhim yangi ma'lumotlarga ega bo'ldik. Hozirgi vaqtda ular ommaviy axborot vositalarida, kitob va albomlarda keng yoritib borilmoqda.

2023-yil 3-fevral kuni Stalingrad jangida erishilgan g'alabaning 80 yilligi nishonlandi. *Stalingrad jangi Ikkinchi jahon urushining eng yirik janglaridan biri bo'lib, jang Moskva yoki Kursk janglari kabi urushda tub burilish yasadi. 1942-yil iyulida boshlangan ushbu jangning eng muhim pallasi o'sha yilning avgusti bo'ldi – o'sha oyda sovet qo'shinlari jangda burilish yasab, nemislar ustidan g'alaba qozona boshladi* [1]. *Jang 1943-yil fevralida sovet qo'shinlarining to'liq g'alabasi bilan yakunlandi. Qaqshatqich zarbaga uchragan Gitler Germaniyasi bu jangdan so'ng o'ziga kelolmadi va chekina boshlab, pirovardida mag'lub bo'ldi.*

Stalingrad olib borilgan janglarda Samarqand va Farg'onada tuzilgan 90 va 94-o'qchi diviziyalarning jasorati jaranglagan edi. Stalingrad yaqinidagi janglarda

o'zbekistonliklardan iborat 33-gvardiya va 112-o'qchi diviziyalari, boshqa ko'plab bo'linmalar va harbiy qismlar qahramonona jang qildilar. Lekin o'zbeklar jasoratining yaqqol namunasi bu Stalingrad mudofaasida 115,2 tepaligida 21 Armiya 76 o'qchi diviziya 216 gvardiya o'qchi polki vzvod komandiri Mixail Naftalievich Kabribov boshchiligida O'rta Osiyolik jangchilardan iborat 11 kishi o'zlaridan 30 marotaba ko'p bo'lgan dushman bilan 12 kun davomida qahramonona jang qilishgani tillarda doston bo'ldi. 40 nafar askardan iborat vzvodning 90 foiz tarkibini o'zbeklar tashkil etgan [2].

Don daryosining o'ng sohilidagi bu bir parcha yerga Oliy Bosh qo'mondonlik qarorgohi juda katta ahamiyat kasb etgan edi. Front kartalarida uni harbiychasiga belgilab, ustiga 115,2 raqamni yozib qo'yishgandi. Qarorgoh vakillari va Janubi-G'arbiy front qo'mondoni mana shu joydan, Kletsk rayonidan Stalingrad jangining hal qiluvchi bosqichi boshlanishi kerak deb hisoblardilar [3].

O'sha kezlar Kletsk qishlog'ining nomi gazeta sahifalaridan tushmay qolgandi. Informbyuro ma'lumotlari "Kletsk rayonida og'ir janglar bo'lmoqda" degan xabarlar bilan boshlanardi.

Marshal G.K. Jukov "Esdaliklar va mulohazalar" kitobida shunday yozgan: "13, 14, 15-sentyabr kunlari stalingradliklar uchun mashaqqatli, nihoyatda og'ir kunlar bo'lgan edi. Dushman hech narsa bilan hisoblashmay shahar xarobalaridan yorib o'tib qadamma-qadam Volgaga yaqinlashardi. Odamlarning bardoshi tugagandek edi. Lekin dushman oldinga tashlangan hamon 62 va 64-armiyalarimizning shonli jangchilari uni ro'parasidan o'qqa tutdilar. Shahar xarobalari qal'aga aylandi. Biroq kuch soat sayin kamayib borayotgan edi.

...To'la ishonch bilan dadil aytamanki, Stalingrad fronti qo'shinlarining qat'iy qarshi zarbalari, aviatsiyaning to'xtovsiz zarbalari bo'lmaganda Stalingradning boshiga yana ham og'ir kunlar tushardi" [4].

Bu bir parcha yerni urushgacha hech qanday nom bilan atashmasdi. Cho'lda oppoq bo'lib ko'rinadigan tepalik gumbaziga bo'r surtib qo'yilgandek edi. Front kartalarida uni harbiychasiga belgilab, ustiga 115,2 raqamni yozib qo'yishgandi.

Sentyabr oyining boshida 76-o'qchi diviziyaga qarashli bataloniga Starokletskni va 115,2 belgili tepalikni egallash vazifasi qo'yildi. Kichik leytenant Mixail Kabribov boshchiligidagi to'qqiz nafar o'zbek, qozoq va tatarlardan iborat bu guruh tepalikni 300 nafar fashistga qarshi himoya qilishgan [5].

Ular Mixail Kabribov, Abdurahmon Erdonov, Boboyor G'afforov, Diyor Axmedov, Subxon Fayziev, Normurod Hayitov, Safar Mardonov, Komil Xuzin, Bahrom Alibekov, Sobir Tolipov, Xudoyqul Musaevlar edi.

Tepalikda to'rt ambrazurali dushman doti bor edi. U yerdan turib fashistlar pulemyotdan o'q yomg'iri yog'dirardi. Janchilar dushman dotga tomon olti soat emaklab bordilar.

Abdurahmon birinchi bo'lib beton teshikka granatani tashlashga muvaffaq bo'ldi. Ambrazuralar og'zi bir nafasda qum to'ldirilgan qoplar bilan to'sildi. Ikki fashist asir olindi. Lekin vzvod ham katta talafot ko'rdi. Bor-yo'g'i o'n ikki jangchi qolgandi. Ulardan biriga asirlarni berib polk shtabiga jo'natganlar. U qaytib kelmadi. Chamasi, shtabgacha yetib borolmagan.

Bo'linma tomonidan tepalik qo'lga kiritildi, lekin uni dushman hujumidan saqlab qolish qiyin vazifa edi. Fashistlar bunday qulay tayanch nuqtasini boy berib qo'yganliklariga sira ham chiday olmasdilar. Ikki kun qattiq jang bilan tepalikni saqlab turildi. Ayniqsa 17-sentyabr kuni og'ir bo'ldi. Ertalabdan kechgacha dushman o'n bir marta hujum

uyushtirdi. Dushman piyoda qo‘shinlari tanklar madadida oldinga yopirilib kelardi.

Kichik leytenant Kabribovning vzvodi so‘l qanotda edi. Fashistlarning qarshi hujumga o‘tganligini payqagan Mixail Kabribov o‘z jangchilariga shunday murojaat qildi. “Jangga tayyorlaning! O‘lsak o‘lamiz, lekin chekinmaymiz». Dushman tobora yaqinlashib kelardi. O‘n bir vatanparvar so‘nggi tomchi qon qolguncha jang qilishga so‘z berdi”.

– Hammayoqni tutun va chang qoplagandi, – hikoya qiladi Mixail Naftalievich, – Boboyor G‘afforovning pulemyot stvoli qizib cho‘g‘ bo‘lib ketdi. Abdurahmon ham shoshilmay o‘zini yo‘qotmasdan o‘q uzardi. Fashistlar esa tobora bostirib kelayotgandi. Hali u, hali bu jangchidan “Komandir! Patronlar tugadi” degan so‘zlarni eshitardim. G‘afforovning pulyometi birdan tinib qoldi. Qarasam jangovar do‘stim og‘ir yaralanib qonga belangan, lekin qo‘lida qurolni mahkam tutib turardi[6].

Dushman saflari juda yaqinlashib qolgandi. Qora tutun orasidan ularning sharpalarini ko‘rish, yangidan-yangi qo‘shilayotgan saflarini sezish mumkin edi. Fashistlar uch yuzdan kam emasdi – har bir jangchiga o‘ttiztadan fashist to‘g‘ri kelardi. Pulemyot, miltiqlardan baravar o‘t ochildi. Dushman qo‘shinlari birin-ketin yer tishlay boshladi. Ammo kichik leytenant Kabribovning vzvodi jangchilari ham siyraklashib qoldi.

“Afsus, Berlingacha borolmadim”, shivirladi qonsirayotgan Xudoyqul. Uning ustiga shinelimni yechib yopib qo‘ydim. Hujjatlarim, uydan kelgan xatlar shu shinelda edi. Chamasi, keyin uni topib olishgan-u, men ham o‘lganlar safiga qo‘shilganman [7].

“Bu o‘lib tirilgan odam” jangning so‘nggi daqiqalarini sira yodidan chiqarmaydi. So‘nggi patronlar ham tamom bo‘lgandi. Sher yurak bo‘lib ketgan yigitlar o‘limga tik borib, aql bovar qilmaydigan qahramonlik ko‘rsatishardi. Ular fashistlar otgan uzun dastali granatalarni ilib olib shu zahoti uni qayta dushmanning o‘zi tomon irg‘itishardi. Fashist galalari esa tugamasdi.

– Vatan uchun, olg‘a!

So‘nggi buyruqni berib nayzabozlik jangi boshladim. Oppoq tepalik qip-qizil qondan sirg‘anchiq bo‘lib ketgan. Oyoqda turish amri mahol. Qulog‘im ostida avtomatdan uzilgan o‘qlar eshitildi. Ko‘ksimga nimadir zarb bilan urildi. Xotiramda qolgan oxirgi lahza hamon ko‘z oldimdan ketmaydi: g‘azabdan yonib ketgan Komil Xuzin nayzasiga fashistni ilib olgan, u dahshat bilan qichqirardi... [7].

22-sentyabrdagi ma‘lumotnoma shunday so‘zlar bilan tugagan edi: “O‘n bir qahramon, o‘zbek va qozoq xalqlarining sodiq farzandlari so‘nggi tomchi qonlari qolguncha jang qildilar, ammo bir qadam ham chekinmadilar. Ularni Vatanga muhabbat, o‘z xalqiga sadoqat hissi ruhlantirib turdi” [9].

Butun frontda tildan-tilga o‘ta boshlagan bu qahramonlikni “Komsomolskaya pravda” gazetasi o‘sha kezlari o‘z o‘quvchilariga maroq bilan hikoya qilib berdi. Gazeta maxsus muxbiri A. Gutorovich bu shiddatli jang tafsilotlarini tarix sahifasiga bitib qo‘ydi: “Bizning qismimiz bir necha soatdan keyin fashistlarni surib, tepalikka bostirib kirdi. Jangchilarimiz bu yerda dahshatli bir manzarani ko‘rdilar. Har bir jangchimiz 10–15 tadan dushman soldatini o‘ldirgan edi. Sharqning 11 farzandi tepalik bo‘zag‘asida fashistlarning yo‘lini to‘sib, qismlarimizga dushmanni uloqtirib tashlashga imkon berdi [10].

Jangchilarimiz botirlarcha kurashib halok bo‘lgan qahramonlarning jasadlarini qidirib yurganlarida, ingragan ovoz eshitdilar. Ular qonga belangan pulemyotchi Boboyor G‘afforovni topdilar. Pulemyotchi misli ko‘rilmagan bu jangni o‘rtoqlariga so‘zlab berdi va ularning qo‘lida jon berdi.

– Biz ularni bu tomonga o‘tkazmadik, dedi shivirlab.

Bu uning so‘nggi so‘zi edi.

– Qahramonlarning jasadlarini ko‘mdilar... Ularning boshlarini sharqqa serquyosh

mamlakatga qaratib qo'ydilar" [7].

Ko'mdilar. Erk uchun qurbon bo'lganlarni, Volgani Sirdek, Amu, Zarafshondek aziz ko'rganlarni, olis yurtni o'z uyim deb bilganlarni, har biri o'nlab yovuzni nayzaga ilganlarni, qullikdan hurlikni sevganlarni, o'n sakkiz yoshida shon-shuhratga to'lganlarni, ochilmay xazon bo'lganlarni ko'mdilar. G'alaba nashidasini surmay, farzandlar kulgisini ko'rmay, qizlar nazokatini ham bilmay, Reyxstagga ol bayroq ilmay armonda ketganlarni ko'mdilar.

Haqiqatda esa o'sha tunda Kabribov bilan Erdonov og'ir yaralanib hushdan ketgach, asir tushib qoladilar.

Madori qurib tamom bo'lgan Kabribov sal o'ziga kelgandan so'ng qochishni o'ylaydi. Ochlik, bo'ynidagi og'ir jarohati azob berardi. Qorong'i tushganda qandaydir bir qishloqqa kirib yashirinishga muvaffaq bo'ladi. Taqdir uni Donesk yaqinidagi Staro-Beshevo qishlog'ida yashovchi keksa kolxozchi ayol Pelageya Petrovna Borlova bilan uchrashtiradi. Pelageya Petrovna va uning qizi Mariya jangchini oyoqqa turg'azish uchun qo'ldan kelgan hamma chorani ko'radilar. Keyin Kabribov front chizig'idan o'tadi. So'ng yana janglarda qatnashadi. Ukrainada, Perekopda, Sapun-Gorada do'stlarining qoni uchun fashistlardan ikki yil davomida o'ch oladi. 1944-yilning sentyabrda batalon komandiri Kabribov Litvada oltinchi marta yaralanib, gospitalga tushib qoladi. Kletsk yaqinidagi jasorati uchun olgan ordeni yoniga Vatan urushi ordeni ham qo'shiladi[6].

Abdurahmon Erdonov deyarli urushning oxirigacha tutqunlikda azob chekdi. 1945-yil bahorida Fransiya hududida uni fransuz Qarshilik harakati jangchilari harbiy mahbuslar lageridan qutqaradilar.

– Buni qarangi, komandirim bilan o'sha tepalikni ikkinchi marta ko'rishga muvaffaq bo'ldim, deydi Abdurahmon aka.

– Tanish tepalikka ko'tariyapman- u, o'sha kuzdagi qonli voqealar ko'z o'ngimda gavdalanadi. U vaqtda juda qiyin bo'lgan edi. Komandirimiz tadbirkorlik qilmaganda vazifani uddalab bo'lmasdi. Tepalikdagi beton ambrazuradan o'lim yomg'iri yog'ilib, boshni ko'targani qo'ymasdi. Shunda Mixail Naftalievich yuk xaltalarimizni bo'shatib unga qum to'ldirishni buyurdi.

Boshimizni og'ir xalta bilan to'sib yer bag'irlab oldinga intilamiz. Xaltani ham kalla bilan surib boraverdim. Har qadamda kimdandir ayrilamiz. Sheriklarimdan biri granata otish uchun ko'tarilganini bilaman. U shu on pulemyot o'qiga uchdi. Qo'lidagi granata esa o'zining tagida portlab ketdi.

Olti soat shu taxlitda sudralibmiz. Xaltacham yonidan dotning og'zi ko'ringanday bo'ldi. Unga granatani qanday uloqtirganimni o'zim ham sezmay qoldim. Shu zahoti sheriklarimiz ambrazura og'zini qopchalari bilan to'ldirib yuborishdi... [7].

Bu jang haqida besh kundan so'ng Qizil Bayroqli 76-tog'-o'qchi diviziya siyosiy bo'limining boshlig'i podpolkovnik Rusov 21-armiya siyosiy bo'limiga quyidagilarni yozib ma'lum qildi. "Leytenant Kabribov boshliq bir guruh jangchilarning qahramonona harakatlari tafsilotlari aniqlandi. Fashistlar boy berilgan marrani qaytarib olish uchun 1942-yil 17-sentyabrda Starokletsk tumanida katta qarshi hujum uyushtirdi" [10].

Yordam uchun yetib kelgan kuchlar tirik qolgan fashistlarni tepalikdan surib chiqarishdi. 12 kun davom etgan jang tugagach, maydonda 150 nemis askarlari va ofitserlarining jasadlari borligi aniqlandi[6].

Urush tugagandan keyin bu yerga omon qolgan jangchilar, qizil iztoparlar, qahramonlarning qarindosh-urug'lari keldilar. Cho'l o'rtasidagi mana shu tepalikda mislsiz jasorat ko'rsatib jon berganlar xotirasini esladilar. Ular bu joyga "Sharqlik o'n bir

qahramon tepaligi” nomini berdilar. Chunki tepalikda jang qilgan o‘n bir qahramonning sakkiz nafari o‘zbek, bitta tatar yana biri qozoq va biri ozarbayjon edi. Tepalikka o‘rnatilgan marmar yodgorlikka ularning nomlari zarhal harflar bilan o‘yib yozib qo‘yildi: Mixail Kabribov, Abdurahmon Erdonov, Boboyor G‘afforov, Diyor Axmedov, Subxon Fayziev, Normurod Hayitov, Safar Mardonov, Komil Xuzin, Bahrom Alibekov, Sobir Tolipov, Xudoyqul Musaev.

Urushdan ancha keyin marmar taxtadan ikki jangchining familiyalari o‘chirib qo‘yishga to‘g‘ri keldi. Mixail Kabribov bilan Abdurahmon Erdonov hayot ekan. Biri Bokuda, ikkinchisi Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida yashar ekan.

Mixail Kabribov 1966-yil qarddon quroldosh do‘sti Abdurahmon Erdonov bilan diyor uchrashdilar. Bu uchrashuvni Mixail Kabribov quyidagicha xotirlaydi “Ishonasizmi, biz 10–15 daqiqa bir-birimizdan ko‘z uzolmasdan yig‘ladik. O‘sha mudhish suronli kunlarni xotirlay boshladik.

Erdonovdan bildimki u va mendan boshqa hech kim tirik qolmagan ekan [11].” Jurnalistlar sobiq vzvod komandirining hikoyasidan 1942-yilning o‘sha unutilmas kunlari haqida ko‘p voqealarni bilib oldilar.

Tepalikka qayta chiqqanda nimaga duch kelding deng. Yerda qo‘rg‘oshin parchalari, tosh-temir aralash tuproqda eski bir yog‘och dastak qo‘lga unnadi. Unda allaqanday yozuvni o‘qish mumkin edi.

– Bilasanmi, Abdurahmon, bu nima?

– ajablanib so‘radi Kabribov.

– Subxon Fayzievning sapyor kurakchasi-ku, hayajondan lol qolgandi sherigim. Darhaqiqat dastakka jangchi ismi va familiyasining bosh harflari o‘yib yozib qo‘yilgan edi [12].

Dahshatli urushning hanuzgacha saqlangan mana shu yodgorligi bahonasi marhum hamqishlog‘im Subxon va Diyor haqida Qamashidan, bizga yaqin Oqrabot qishlog‘idan bo‘lgan Boboyor G‘afforov, Normurod Haitovlar haqida, narpaylik Safar Mardonov, Sobir Tolipov, Xudoyqul Musaevlar haqida, boshqa sher yurak azamatlar haqida ko‘p narsalarni eslashdik. Bilsak Safar ham o‘sha jangda omon qolgan ekan. U keyin, 1944-yil 21-martda qahramonlarcha halok bo‘lgan.

Aslida o‘n bir qahramonning sakkiz nafari o‘zbekistonlik edi. Qozog‘istonlik Komil Xuzin millat mansubligi bo‘yicha tatar, Stalingrad viloyatida yashagan Sobir Tolipov qozoq edi. Samarqand viloyati, Narpay tumanidan Bahrom Alimbekov – 1912-yilda tug‘ilgan, Hudoyqul Musaev – 1918-yilda tug‘ilgan, Safar Mardonov – 1923-yilda tug‘ilgan. Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanidan Boboyor G‘afforov – 1920-yilda tug‘ilgan, Diyor Ahmedov–1920-yilda tug‘ilgan, Subhon Fayziev –1922-yilda tug‘ilgan, Normurod Hayitov – 1923-yilda tug‘ilgan, Abdurahmon Erdonov – 1923-yilda tug‘ilgan, urushdan omon qaytgan[13].

Subxon Fayzievning sapyor kurakchasini Bokuga olib keldik. Uni Mixail Kabribov urushgacha o‘zi ta‘lim olgan 18- maktab muzeyiga yodgorlik sifatida topshirdi.

O‘sha jangdagi qahramonlikdan guvohlik beruvchi yana bir tarixiy yodgorlik bilan Volgograd muzeyida tanishish mumkin. Front qo‘mondoni general K.K. Rokossovskiy leytenant Kabribov va o‘n qahramonni jangovar ordenlar bilan mukofotlash to‘g‘risida buyruq bergan edi. Don fronti qo‘shinlari bo‘yicha 1942-yil 29-oktyabrdagi 35/n-sonli buyrug‘i bilan M. Kabribovning o‘zi Lenin, qolgan jangchilarning bari Qizil Bayroq ordeni bilan taqdirlangandi. Ana shu buyruq bilan birga “Qahramonlar xotirasiga bayroqlarni eging!” maqolasi Don frontida chiqib turgan “Krasnaya Armiya” gazetasining 1942-yil

5-noyabr sonida bosilgan. Bu eksponat ham Sharq qahramonlari tepaligidagi jasoratdan avlodlarga hikoya qiladi.

Yozuvchi Ilya Erenburg shunday deb yozgan edi: “Men Volga yaqinida o‘zbeklar tomonidan ozod qilingan rus qishlog‘ini ko‘rdim. Farg‘ona vodiysida tinch odamlar yashagan. Ular mehnatni, do‘stona suhbatlarni, yulduzli osmonni yaxshi ko‘rishardi. Ular qurol ko‘tarishmagan. Ammo dahshatli onlar keldi va o‘zbeklar jasorat bilan jangga kirishdilar. Vatanimizning boshqa yigitlari bilan yonma-yon ular hayot, nafas, non, orzu, erkinlikni himoya qiladilar”.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston halqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qushkan xissasi. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2020. 75 b
2. Saidolimov S., Sa’dullaev K. Volgabo‘yi janglarida o‘zbekistonliklarning jasorati / Ko‘pmillatli O‘zbekiston xalqining Ikkinchi jahon urushi yillarida front va front ortida ko‘rsatgan beqiyos jasorati: tarix, talqin, texnologiya. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2023. – B. 77–104.
3. Dilbar Ismatullayeva “Orqaga bir qadam ham tashlamang!” Ikkinchi jahon urushida tub burilish yasagan Stalingrad jangi haqida. 23.08.2020, IZOH (0) 4659.
4. Г. К. Жуков «Воспоминания и размышления». Москва. 1970 год. 405 ст.
5. М.Чистяков. Журнал «Смена» «Мы – сталинградцы» № 373-374 в декабрь 1942 год.
6. И. Михайлова. «Герой без звезды»: лейтенант Кабрибов. 19.08.2018
7. Xotira kitobi. Qomuslar Bosh tahririyati. Toshkent. 1995yil. 168-169 bet
8. O‘zbekiston halqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qushkan xissasi. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2020. 75 b
9. А. Гуторович. «Комсомольская правда» [газета], 1942, № 205 (5300), ЦАМО, ф. 158, оп. 12819. д. 152, лл. 18, 32, 71, 119, 165
10. «Mikhail Naftalievich Kabribovning 1977 yil 28 martida O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisiga yo‘llagan xati» O‘zbekiston Milliy arxivi R-2844-jamg‘arma. 1-ro‘yxat, 195-hujjatlar yig‘ma jildi.
11. Юдин Ю. Их оставалось только двое / газета “Правда Востока” от 18 апреля 1974 года
12. O‘zbekiston Milliy arxivi R-2844-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 185-hujjatlar yig‘ma jildi, 18–19 varaqlar.